



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN

СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI</b> <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	<b>O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH</b> <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	<b>ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS</b> <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	<b>QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI</b> <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	<b>SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILIY TA'MINOTI</b> <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	<b>SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	<b>TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH</b> <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	<b>KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI</b> <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	<b>XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	<b>MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	<b>KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH</b> <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	<b>XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	<b>XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	<b>ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	<b>XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56
16.	<b>IQTISODIY O'SISH BARQARORLIGINI TA'MINLOVCHI OMILLAR. (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)</b> <i>Xolbekov Shoxsuvor Ochilovich</i>	61
17.	<b>ФОРМИРОВАНИЕ РЫНКА ВТОРИЧНЫХ РЕСУРСОВ КАК ОСНОВА РЕСУРСОСБЕРЕГАЮЩЕЙ МОДЕЛИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b> <i>Ким Татьяна Валерьевна</i>	65
18.	<b>ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ ПО ВНЕДРЕНИЮ СИСТЕМЫ КОРЕЙСКОГО ФОНДА КРЕДИТНЫХ ГАРАНТИЙ</b> <i>Рахманов Бекзод Ибрагимович</i>	70

19	<b>TRANSPORT SUG'URTASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Rustamov Sherzod Raxmataliyevich</i>	74
20	<b>RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR SUG'URTA SEKTORIDA BIZNES JARAYONLARINI BOSHQARISH MEXANIZMLARI VA ULARNI MILLIY SUG'URTA TIZIMIGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI</b> <i>Yakubova Nargiz Tursunbayevna</i>	76
21	<b>НАПРАВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ БАНКОВСКОГО СТРАХОВАНИЯ В СТРАХОВОЙ ПРАКТИКЕ УЗБЕКИСТАНА</b> <i>Закирходжаева Ширин Акмаловна</i>	80
22	<b>THE PLACE AND IMPORTANCE OF THE LOGISTICS INDUSTRY IN THE NATIONAL ECONOMY</b> <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	84
23	<b>O'ZBEKISTONDA ISLOMIY BANKLAR INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MUOMMOLARI</b> <i>Mirzasalimova Ozoda To'liq qizi</i>	88
24	<b>O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	90
25	<b>IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA XIZMAT KO'RSATISH JARAYONLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</b> <i>Ilhom Safarboyevich Shukurov</i>	92
26	<b>GLOBALASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIK PIVOJLANISH QONUNIYATLARI</b> <i>Mamatova Fotima Abdusalomovna</i>	96
27	<b>NOMODDIY AKTIVLARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDAGI TASNIFI VA TAVSIFINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Shirinov Uchqun Abdusalilovich, Abdug'ofurov Og'abek Tolib o'g'li</i>	99
28	<b>MINTAQADA TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Muxiddinov Tal'at Shaydullo o'g'li</i>	103
29	<b>MAMLAKATIMIZDA JORIY ETILAYOTGAN "XAVFSIZ SHAHAR" LOYIHASINING ASOSIY VAZIFALARI TAHLILI</b> <i>Iminov Akbarjon Odiljon o'g'li</i>	106
30	<b>O'ZBEKISTONDA PENSIYA SUG'URTASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI</b> <i>Yoldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	110
31	<b>SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR AUDITINI TASHKIL ETISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI</b> <i>Urozoov Komil Bahromovich, Sharifov Davlatjon Nosirovich</i>	113
32	<b>SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI</b> <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	117
33	<b>SUG'URTA XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA DAROMADLAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Urozoov Komil Bahromovich</i>	122

## **“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI**

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



## SUG'URTA TASHKILOTLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI VA OMILLARI

Xolbayev Azamat Yuldashovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Sug'urta ishi" kafedrasida dotsenti PhD  
Email: xolbayev.azamat80@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sug'urta tashkilotlari moliyaviy barqarorligining iqtisodiy mohiyati, uning nazariy asoslari hamda shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida moliyaviy barqarorlik tushunchasining sug'urta faoliyatidagi o'rni ochib berilib, sug'urta tashkilotlarining to'lovga layoqatliligi, kapitallashuv darajasi, sug'urta xazinalari yetarililigi, investitsiya faoliyati samaradorligi hamda risklarni boshqarish tizimi moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omillar sifatida asoslab berilgan. Shuningdek, sug'urta bozorida raqobat muhiti, makroiqtisodiy barqarorlik va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarining moliyaviy barqarorlikka ta'siri yoritilgan. Maqola natijalari sug'urta tashkilotlari moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** sug'urta tashkilotlari, moliyaviy barqarorlik, to'lovga layoqatlilik, sug'urta xazinalari, kapitallashuv, risklarni boshqarish, moliyaviy xavfsizlik.

**Abstract:** This article scientifically and theoretically studies the economic essence of the financial stability of insurance organizations, its theoretical foundations and the main factors influencing its formation. In the course of the research, the role of the concept of financial stability in insurance activities was revealed, and the solvency of insurance organizations, the level of capitalization, the adequacy of insurance reserves, the efficiency of investment activities and the risk management system were substantiated as important factors ensuring financial stability. The impact of the competitive environment in the insurance market, macroeconomic stability and state regulatory mechanisms on financial stability was also highlighted. The results of the article are of great importance in developing scientific conclusions and practical recommendations aimed at strengthening the financial stability of insurance organizations.

**Keywords:** insurance organizations, financial stability, solvency, insurance reserves, capitalization, risk management, financial security.

**Абстрактный:** В данной статье научно и теоретически исследуется экономическая сущность финансовой стабильности страховых организаций, ее теоретические основы и основные факторы, влияющие на ее формирование. В ходе исследования выявлена роль концепции финансовой стабильности в страховой деятельности, а также обоснованы такие важные факторы, обеспечивающие финансовую стабильность, как платежеспособность страховых организаций, уровень капитализации, достаточность страховых резервов, эффективность инвестиционной деятельности и система управления рисками. Также подчеркнута влияние конкурентной среды на страховом рынке, макроэкономической стабильности и механизмов государственного регулирования на финансовую стабильность. Результаты статьи имеют большое значение для разработки научных выводов и практических рекомендаций, направленных на укрепление финансовой стабильности страховых организаций.

**Ключевые слова:** страховые организации, финансовая стабильность, платежеспособность, страховые резервы, капитализация, управление рисками, финансовая безопасность.

### Kirish (Введение/Introduction).

Hozirgi globallashuv va moliyaviy bozorlar integratsiyasi sharoitida sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Sug'urta tashkilotlari nafaqat aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning risklarini kamaytirish, balki moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu bois, sug'urta tashkilotlari moliyaviy barqarorligining iqtisodiy mohiyatini chuqur o'rganish hamda unga ta'sir etuvchi omillarni ilmiy jihatdan asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy barqarorlik sug'urta tashkilotlarining o'z majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish qobiliyati, risklarni samarali boshqarish hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash imkoniyatini ifodalaydi. Ushbu maqolada sug'urta tashkilotlari moliyaviy barqarorligining iqtisodiy mazmuni va uni belgilab beruvchi asosiy omillar nazariy jihatdan tahlil qilingan.[1]

Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tashkilotlari moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini turli tavadakkalchiliklardan himoya qilish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda investitsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Sug'urta tashkilotlarining samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan ularning moliyaviy barqarorligiga bog'liq bo'lib, ushbu ko'rsatkich kompaniyaning o'z majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarish qobiliyatini ifodalaydi.

Globalashuv jarayonlari, moliya bozorlaridagi o'zgarishlar va raqobat muhitining kuchayishi sug'urta tashkilotlari oldiga moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha yangi talablarni qo'yimoqda. Sug'urta

kompaniyalari faoliyatida yuzaga keladigan risklar, kutilmagan zararlar, investitsiya daromadlarining pasayishi hamda sug'urta hodisalari sonining ortishi ularning moliyaviy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli moliyaviy barqarorlikni shakllantiruvchi va unga ta'sir etuvchi omillarni chuqur o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.[2]

Sug'urta tizimi bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarni kamaytirish va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Sug'urta kompaniyalarining barqaror faoliyati nafaqat ularning ichki moliyaviy holatiga, balki butun moliya tizimi barqarorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini baholash va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bugungi kunda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi kapital yetarililigi, to'lov qobiliyati, likvidlik darajasi, risklarni boshqarish samaradorligi hamda investitsion faoliyat natijalari kabi ko'rsatkichlar orqali baholanmoqda. Shu bilan birga, global iqtisodiy jarayonlar, inflyatsiya darajasi, moliyaviy bozorlarning o'zgaruvchanligi va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi sug'urta sektorining barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, so'nggi yillarda sug'urta bozorida raqobat kuchayib, kompaniyalar oldida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatish vazifasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini belgilovchi mezonlarni chuqur tahlil qilish va

ularga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash ilmiy jihatdan asoslangan qarorlar qabul qilish uchun zarurdir.

Tadqiqotning maqsadi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini belgilovchi mezonlarni aniqlash hamda unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni o'rganishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili, risklarni boshqarish yondashuvlari va xalqaro tajribalar o'rganiladi.

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash va baholashda kapital yetarliligi, likvidlik darajasi, sug'urta zaxiralari shakllanishi, qayta sug'urta mexanizmlaridan foydalanish samaradorligi va investitsiya faoliyati kabi mezonlar asosiy o'rin tutadi. Shu bilan birga, moliyaviy barqarorlik tashqi va ichki iqtisodiy omillar ta'sirida o'zgarib borishi mumkin. Jahon moliyaviy bozorlaridagi o'zgarishlar, makroiqtisodiy tendensiyalar, inflyatsiya darajasi, sug'urta talab va taklifi, raqobat muhiti kabi tashqi omillar sug'urta kompaniyalarining barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, kompaniyaning menejment strategiyasi, sug'urta portfelining diversifikatsiya darajasi, risklarni boshqarish mexanizmlari kabi ichki omillar ham sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).**

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi masalalari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Jumladan, klassik iqtisodiy nazariya va zamonaviy moliya nazariyalarida moliyaviy barqarorlik korxonalarining to'lovga layoqatligi, likvidligi va kapital yetarliligi bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

Sug'urta sohasida moliyaviy barqarorlik masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda asosiy e'tibor sug'urta zaxiralari yetarliligi, qayta sug'urtalash mexanizmlari, investitsiya portfelining diversifikatsiyasi hamda risk-menejment tizimiga qaratilgan. Ayrim tadqiqotlarda davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarining sug'urta tashkilotlari barqarorligiga ta'siri alohida ta'kidlangan.

Shu bilan birga, milliy sug'urta bozorlari sharoitida moliyaviy barqarorlik omillarini kompleks baholashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada emas. Bu esa mazkur yo'nalishda nazariy va amaliy tadqiqotlarni chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni boshqarish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, u asosan moliyaviy menejment, risk-menejment va sug'urta nazariyasi doirasida tadqiq etiladi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, moliyaviy barqarorlik tushunchasi to'lovga qobiliyatlik, kapital yetarliligi va risklarni boshqarish bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan Babel D.L., Greys J.D., & Kleyn, R. B. Frouer, K. A. Eugene F. Brigham va Joel F. Houston moliyaviy menejment nazariyasida korxonada moliyaviy barqarorligini kapital tuzilmasi, likvidlik va rentabellik muvozanati orqali izohlaydi. Ularning yondashuviga ko'ra, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun optimal kapital strukturasi shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Sug'urta nazariyasining fundamental asoslari esa Kenneth J. Arrow tomonidan ishlab chiqilgan risk va noaniqlik nazariyasiga tayanadi.[3]

Mahalliy iqtisodchi olimlar N.Abdullayeva, I.Abduraxmonov, G.Adilova, N.Jumayev, U.Imomov, I.Kenjeyev, N.Mavrulova, Q.Nomozova, G.Nosirova, S.Umarov, X.Umarov, O.Yuldashev, N.Yakubova, Q.Qo'ldoshev tomonidan ham sug'urta bozoringan rivojlanishi va moliyaviy barqarorlik masalalari keng o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy resurslarini boshqarish, zaxiralarni shakllantirish va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari ilmiy asoslab berilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sug'urta tashkilotlari moliyaviy barqarorligini boshqarish masalasi ko'p qirrali bo'lib, u moliyaviy menejment, risk nazariyasi va davlat nazorati tizimining o'zaro uyg'unligiga tayanadi. Biroq zamonaviy sharoitda raqamlashtirish, global moliyaviy risklar va iqlim o'zgarishi kabi yangi omillar sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash metodologiyasini yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

**Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).**

Tadqiqotni bajarish jarayonida qo'llanilgan usullar sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy mezonlarni aniqlash hamda ushbu barqarorlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni kompleks tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ham tadqiqotning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun sug'urta kompaniyalarining moliyaviy ko'rsatkichlari, jumladan kapital yetarliligi, likvidlik, to'lov qobiliyati, sug'urta mukofotlari va zararlar nisbati kabi indikatorlar tahlil

qilinadi. Shuningdek, moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi makroiqtisodiy va bozor omillari o'rganiladi.

Tadqiqot usullari sifatida quyidagi ilmiy yondashuvlardan foydalanildi:

**Tizimli tahlil usuli** – sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini kompleks tizim sifatida o'rganish uchun;

**Qiyosiy tahlil usuli** – turli davrlardagi moliyaviy ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun;

**Statistik tahlil usuli** – sug'urta bozoridagi asosiy iqtisodiy indikatorlarni tahlil qilish va tendensiyalarni aniqlash uchun;

**Umumlashtirish va sintez usuli** – olingan natijalarni yagona ilmiy xulosaga keltirish uchun;

**Iqtisodiy tahlil usuli** – sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holatini baholash va samaradorlik darajasini aniqlash uchun.

Sug'urta bozorida barqaror va samarali faoliyat yuritish uchun boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash.

Umumiy maqsad: Sug'urta tashkilotlarida moliyaviy barqarorlikni boshqarish tizimini ilmiy asosda tahlil qilish, uni takomillashtirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты)**

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi milliy iqtisodiyotning uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki sug'urta tizimi moliyaviy xavflarni taqsimlash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi hamda tadbirkorlik subyektlarining mulkiy manfaatlarini himoya qilishda muhim o'rin tutadi. Sug'urta kompaniyalarining uzoq muddatli faoliyati va majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olishi uchun ularning moliyaviy barqarorligi mustahkam bo'lishi lozim. Shu bois, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holatini baholash va uni barqarorlashtirish maqsadida muayyan mezonlar ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu mezonlar orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holati tahlil qilinadi va ularga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi.

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash va baholashda kapital yetarliligi, likvidlik darajasi, sug'urta zaxiralari shakllanishi, qayta sug'urta mexanizmlaridan foydalanish samaradorligi va investitsiya faoliyati kabi mezonlar asosiy o'rin tutadi. Shu bilan birga, moliyaviy barqarorlik tashqi va ichki iqtisodiy omillar ta'sirida o'zgarib borishi mumkin. Jahon moliyaviy bozorlaridagi o'zgarishlar, makroiqtisodiy tendensiyalar, inflyatsiya darajasi, sug'urta talab va taklifi, raqobat muhiti kabi tashqi omillar sug'urta kompaniyalarining barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, kompaniyaning menejment strategiyasi, sug'urta portfelining diversifikatsiya darajasi, risklarni boshqarish mexanizmlari kabi ichki omillar ham sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligida hal qiluvchi ahamiyatga ega.[4]

Ushbu paragrafda sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini belgilash uchun qo'llaniladigan asosiy mezonlar tahlil qilinib, ularga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar kompleks yoritiladi. Shuningdek, xalqaro standartlar va milliy amaliyotda qo'llaniladigan baholash mexanizmlari o'rganilib, sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy mezonlar ularning iqtisodiy barqarorligi va uzoq muddatli faoliyatini ta'minlash uchun muhim indikatorlar hisoblanadi. Ushbu mezonlar kompaniyaning o'z majburiyatlarini bajara olishi, bozorda raqobatbardoshligini saqlab qolishi va iqtisodiy xavflarga bardosh berish qobiliyatini baholashda ishlatiladi. Quyida sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini aniqlashda eng muhim mezonlar keltiriladi:

**Birinchi mezon** – kapital yetarliligi. Sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligi birinchi navbatda uning kapital miqdori va uning xavflarga nisbatan yetarliligi bilan belgilanadi. Kapital yetarliligi kompaniyaning aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash, sug'urta talablarini qoplash va ehtimoliy moliyaviy yo'qotishlarga tayyor turish imkonini beradi. Solvensi II (Solvency II) xalqaro standartiga muvofiq, kapital yetarliligi mezon kompaniyaning xavf darajasini hisobga olgan holda aniqlanishi lozim.

**Ikkinchi mezon** – likvidlik darajasi. Sug'urta kompaniyasining o'z moliyaviy majburiyatlarini qisqa muddatda bajara olish qobiliyati likvidlik darajasi bilan baholanadi. Likvidlik darajasi yuqori bo'lgan kompaniyalar to'lov qobiliyatiga ega bo'lib, sug'urta da'volarini o'z vaqtida qoplash imkoniyatiga ega bo'ladi. Likvidlik koeffitsiyenti sug'urta kompaniyasining joriy aktivlari va qisqa muddatli majburiyatlari o'rtasidagi nisbat orqali baholanadi.

Ushbu mezonlar sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holatini baholash va ularning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Har bir mezon sug'urta kompaniyalarining moliyaviy strategik rejalashtirish jarayonida tahlil qilinishi va ularga mos choralar ko'rilishi zarur.

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar tashqi va ichki omillarga bo'linadi. Tashqi omillar asosan makroiqtisodiy, tartibga soluvchi va bozor muhitiga bog'liq bo'lgan tashqi ta'sir kuchlarini qamrab olsa, ichki omillar kompaniyaning ichki moliyaviy holati, boshqaruv strategiyasi va resurslardan foydalanish samaradorligi bilan bog'liq. Har ikkala guruhning ham sug'urta kompaniyalari faoliyatiga katta ta'siri bor va ularni tizimli o'rganish kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.[5]

Tashqi omillar sug'urta kompaniyalarining faoliyatiga bevosita va bilvosita ta'sir etuvchi makroiqtisodiy, tartibga soluvchi va bozor sharoitlariga bog'liq faktorlardan iborat.

Birinchidan, makroiqtisodiy holat sug'urta bozorining barqarorligiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiya darajasi, yalpi ichki mahsulot o'sish sur'ati, valyuta kurslari o'zgarishi va aholi daromadlarining o'zgarishi sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni shakllantiradi. Har qanday makroiqtisodiy beqarorlik aholining sug'urtaga bo'lgan talabini kamaytirishi yoki sug'urta kompaniyalarining aktivlariga ta'sir qilishi mumkin.

Ikkinchi muhim tashqi omil – tartibga soluvchi va huquqiy muhitdir. Davlat tomonidan sug'urta bozorini tartibga solishda qo'llaniladigan soliq siyosati, majburiy sug'urta turlari bo'yicha qonunlar, litsenziyalash va minimal kapital talablari kompaniyalarining moliyaviy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jahon amaliyotida Solvensi II (Solvency II) va boshqa xalqaro standartlar sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun qo'llaniladi, va ushbu standartlarning milliy darajada tatbiq qilinishi sug'urta bozori rivojiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Ichki omillar esa sug'urta kompaniyalarining o'z ichki resurslari, boshqaruv strategiyasi va moliyaviy siyosatidan kelib chiqadi. Birinchidan, kapital yetarliligi va uning manbalari kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biridir. Agar kompaniya yetarlicha kapitalga ega bo'lmasa, katta sug'urta da'volari yuzaga kelganda moliyaviy muammolarga duch kelishi mumkin.

Ikkinchi ichki omil – likvidlik boshqaruvi va aktivlarni diversifikatsiya qilish. Sug'urta kompaniyalari o'z aktivlarini to'g'ri joylashtirishi va likvidlikni ta'minlashi kerak. Agar aktivlar likvidlik darajasi past bo'lgan vositalarga sarmoya qilingan bo'lsa, sug'urta kompaniyasi tezkor moliyaviy majburiyatlarni bajara olmasligi mumkin.

Yuqorida ta'kidlangan tashqi va ichki omillar sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ularni doimiy monitoring qilish va tahlil etish orqali uzoq muddatli barqaror faoliyatni ta'minlash mumkin. Boshqaruv organlari va sug'urta kompaniyalari rahbariyati ushbu omillarni tizimli tahlil qilib, samarali moliyaviy siyosat va xavflarni boshqarish strategiyasini shakllantirishi lozim.

Har bir sohaning moliyaviy barqarorligiga turlicha omillar ta'sir ko'rsatadi, xususan, sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga esa ta'sir etuvchi faktorlar ikkiga bo'linadi, tashqi va ichki omillar. Sug'urta bozorining jadal rivojlanib borishida kompaniyalarining faoliyati muhim sanaladi, bundan tashqari jamiyatning sug'urta sohasiga bo'lgan munosabatida ham aks etadi, shuningdek, ularning moliyaviy barqarorligini uzoq muddat ichida ushlab turish esa ta'sir etuvchi omillarni baholash va risklarni minimallashtirish bilan bog'liq mexanizmlarni yaratishga qaratilgan.[6]

1-jadval

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarning tasnifi[7]

Tashqi omillar		Ichki omillar	
Bevosita ta'sir etuvchi	Bilvosita ta'sir etuvchi	Bevosita ta'sir etuvchi	Bilvosita ta'sir etuvchi
Sug'urta kompaniyalar faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish	Tashqi, ichki iqtisodiy va siyosiy vaziyat	Mijozlar sonining miqdori, rivojlanganligi va barqarorligi	Kompaniyaning umumiy strategiyasi
Soliq, valyuta, kredit va	Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning darajasi	Kompaniyaning faoliyat hajmi va	Sug'urta portfelining diversifikatsiyalashuvi va sug'urta

bojxona siyosati		ixtisoslashuvi	xizmatlarning miqdori
Korporativ tuzilmalar o'rtasidagi o'zaro moliyaviy munosabatlardan	Moliya bozori konyunkturasi ning rivojlanish holati	Zamonaviy risk menejmentini rivojlanganlik darajasi	Xususiy kapital va sug'urta zaxiralarning miqdori

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlash va baholashda xalqaro standartlar va milliy amaliyotda qo'llaniladigan baholash mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash mexanizmlari sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holatini aniqlash, ularning xavflarni boshqarish qobiliyatini baholash hamda sug'urta bozorining umumiy barqarorligini ta'minlash uchun ishlatiladi. Jahon tajribasida moliyaviy barqarorlikni baholashda Solvensi II (Solvency II) standarti, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) va boshqa xalqaro standartlar keng qo'llaniladi. Shuningdek, har bir mamlakat milliy qonunchiligi va bozor talablariga mos ravishda o'z baholash mexanizmlarini ishlab chiqadi.[8]

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholashda "Solvensi II (Solvency II) xalqaro standarti" eng keng tarqalgan baholash mexanizmi hisoblanadi. Ushbu standart Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida joriy etilgan bo'lib, sug'urta kompaniyalarining kapital yetarliligi va risklarni boshqarish mexanizmlarini baholash uchun ishlatiladi. Solvensi II modeli uchta asosiy ustunga tayanadi:[9]

Birinchisi, "kapital talablari" bo'lib, u sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun yetarli kapital zaxiralari ega bo'lishini taqozo qiladi.

Ikkinchisi, "riskni boshqarish va nazorat mexanizmlari" bo'lib, u kompaniyalarining risklarni samarali boshqarishi va qayta sug'urtalash sxemalaridan foydalanish samaradorligini baholaydi.

Uchinchisi esa, "shaffoflik va bozordagi intizom" bo'lib, u kompaniyalar tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy ma'lumotlarning shaffofligi va bozor ishtirokchilariga ochiqligini ta'minlashga qaratilgan.

Solvensi II standarti sug'urta kompaniyalarining moliyaviy xavflarini kamaytirish va ularning barqarorligini oshirish uchun ishlab chiqilgan bo'lib, u kapital yetarliligi tahlil qilishda turli risklar – bozor xavfi, kredit xavfi, sug'urta xavfi va likvidlik xavfini hisobga oladi. Shu bilan birga, ushbu standart sug'urta kompaniyalarini xavflarni minimallashtirish uchun samarali riskni boshqarish strategiyalarini joriy etishga majbur qiladi.

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholashda "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)" ham muhim o'rin tutadi. IFRS 17 – Sug'urta shartnomalari bo'yicha standart sug'urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlarini shaffof va solishtirish imkonini beruvchi mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Bu standart sug'urta kompaniyalarining sug'urta mukofotlarini tan olish, rezervlarni baholash, da'volarni qoplash va moliyaviy xavflarni hisoblash kabi jihatlariga asoslangan. [10]

Xalqaro amaliyotda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholashda «reyting agentliklari metodologiyasi» ham qo'llaniladi. Standard & Poor's, Moody's va Fitch kabi xalqaro reyting agentliklari sug'urta kompaniyalarining kredit qobiliyatini, kapital yetarliligi, likvidlik darajasini va bozordagi pozitsiyasini baholaydi. Ushbu reytinglar investorlar va bozor ishtirokchilari uchun kompaniyalarining moliyaviy holati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.[11]

2-jadval

"Kafolat-sug'urta" AJning moliyaviy natijalarining dinamikasi (mln.so'm hisobida)[12].

(1 yanvar holatiga)

Ko'rsatkichlar	Yillar					2021 yilga nisbatan 2025 yilda o'sish yoki kamayish %
	2021	2022	2023	2024	2025	
Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda	28 544,8	36 243,3	47 949,4	58 628,7	79913,2	280,0

n daromadlar						
Zararlarni qoplash bo'yicha qayta sug'urtadan daromadlar	1 413 ,1	3 169 ,7	4 857 ,7	8 440 ,9	6741 ,1	477,0
Qayta sug'urta bo'yicha komission mukofotlar, tanyemalar va yig'imlar bo'yicha daromadlar	2 703,9	5 174 ,9	7 468 ,1	2 963 ,6	1303 ,4	-51,8
Sug'urta xizmatlari ko'rsatishda n sof tushum	32 66 1,8	44 58 9,0	60 27 5,1	70 03 3,2	8795 7,7	269,3
Sug'urta xizmatlarini ko'rsatishda n yalpi foyda	15 89 9,3	21 05 6,5	28 27 8,4	29 46 5,9	3490 5,0	219,5
Asosiy faoliyatning boshqa daromatlari	146	408,2	1 206 ,6	1 389 ,3	1897 ,1	1299, 4
Moliyaviy faoliyatning daromatlari	4 557 ,8	5 963 ,7	4 794 ,9	8 391 ,2	1677 3,7	368,0
Foyda solig'ini to'langunga qadar foyda	3 075 ,4	3 063 ,2	3 567 ,4	4 306 ,1	4310 ,9	140,2
Hisobot davrining sof foydasi	2 531 ,7	2 605 ,1	3 080 ,4	3 525 ,0	4060 ,4	160,4

Jadval ma'lumotlarini tahlil qilganimizda zararlarni qoplash bo'yicha qayta sug'urtadan daromadlarning sezilarli oshganligi, qayta sug'urta bo'yicha komission mukofotlar, tanyemalar va yig'imlar bo'yicha daromadlarning kamayganligi va asosiy faoliyatning boshqa daromadlari keskin ravishda oshganligi ma'lum bo'ldi. Bitta ko'rsatkichdan boshqa barcha ko'rsatkichlar yuqori darajada oshgani holda, hisobot davrining sof foydasi nisbatan past darajada oshganligi sug'urta xizmatlari ko'rsatish bo'yicha xarajatlarning oshganligidan va bu kompaniyada ishni tashkil etish samaradorligining pasayganligidan dalolat beradi.

Sug'urta kompaniyasi pul oqimlari shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari masalasida sug'urta bozoridagi turli yo'nalishlar o'rtasidagi o'zaro aloqa, xususan, transport oqimlari, sug'urta kompaniyasidagi pul oqimlari masalalari tadqiqotchilar tomonidan yetarlicha o'rganilmagan. Sug'urta kompaniyasi moliyaviy oqimlarini tadqiq qilish shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kungacha qo'yilmalarni yangi sug'urta dasturlariga joylashtirishning barcha manbalarining mavjud imkoniyatlari to'liq aniqlanmagan. Sug'urta menejmentida sug'urta dasturlariga investitsiyalarning samarali yo'nalishlarini tanlash uchun kompaniya ichida pul mablag'lari harakatining dinamik xususiyatlarini hisobga oluvchi, ularning tashqi oqimlar bilan o'zaro aloqasini,

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы /References):

1. Eugene F. Brigham, Joel F. Houston. Fundamentals of Financial Management. – Boston: Cengage Learning, 2019.
2. Kenneth J. Arrow. Essays in the Theory of Risk-Bearing. – Chicago: Markham Publishing Company, 1971.
3. Robert E. Hoyt, Peter Moles. Risk Management and Insurance. – Wiley, 2017.
4. International Association of Insurance Supervisors. Insurance Core Principles and Common Framework for the Supervision of Internationally Active Insurance Groups (ComFrame). – Basel, 2019.
5. International Monetary Fund. Financial Soundness Indicators: Compilation Guide. – Washington, DC, 2019.
6. Kholbaev A.Yu. Information Risk Insurance: Concept and Basic Aspects // International Journal of Trend in Scientific Research and Development, Vol. 6, Issue 1, November-December 2021. – Pp.760-766.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 martdagi PQ-108-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

joylashtirishning vaqt jihatidan to'g'ri belgilanishi masalalarida yangicha usullarni ishlab chiqish zarur.

2025 yilda Respublika sug'urta bozori 2021 yilga nisbatan 3,7 marta o'sib, shu yilda to'plangan sug'urta mukofotlari hajmi 1 635,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.[13]

#### Xulosa (Conclusion, Заключение)

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat kompaniyalarning to'lov qobiliyatini, balki sug'urta bozori ishonchligi va barqaror rivojlanishini ham belgilaydi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kapital yetarligi, likvidlik darajasi, sug'urta zaxiralari, qayta sug'urtalash mexanizmlari hamda investitsion faoliyat asosiy mezonlar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holatiga tashqi omillar – makroiqtisodiy barqarorlik, inflyatsiya darajasi, davlatning tartibga solish siyosati va bozor raqobati sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ichki omillar, jumladan menejment samaradorligi, risklarni boshqarish tizimi, kapital strukturasi to'g'ri shakllantirilishi va aktivlar diversifikatsiyasi ham kompaniyaning barqaror faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Amaliy tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, sug'urta bozori so'nggi yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, sug'urta mukofotlari hajmining sezilarli oshishi va filiallar tarmog'ining kengayishi kuzatilmoqda. Biroq, ayrim moliyaviy ko'rsatkichlarda, xususan foyda o'sish sur'atlarining nisbatan pastligi xarajatlarni boshqarish va operatsion samaradorlikni oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalarining barqarorligini ta'minlashda Solvency II, IFRS 17 kabi standartlar hamda rating agentliklari metodologiyasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar risklarni kompleks baholash va shaffof moliyaviy hisobot tizimini shakllantirish imkonini beradi.

Sug'urta sohasida moliyaviy barqarorlikni tartibga solish tizimi sug'urta bozorining ishonchligi va barqaror rivojlanishining asosiy omilidir. Kapital yetarligi, sug'urta zaxiralari, prudensial nazorat, risk-menejment va qayta sug'urtalash mexanizmlari uyg'unligi moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Kelgusida sug'urta tizimini rivojlantirishda xalqaro standartlarga mos nazorat mexanizmlarini joriy etish, raqamli monitoring tizimlarini kengaytirish va risklarni boshqarish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug'urta tashkilotlari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni boshqarish tizimi kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanishi va bozordagi ishonchligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Moliyaviy resurslarni samarali boshqarish, risklarni minimallashtirish va kapital yetarligini ta'minlash sug'urta tashkilotlarining barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda sug'urta kompaniyalarida riskka asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish va xalqaro standartlarga mos ravishda moliyaviy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda riskka asoslangan boshqaruv yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada xalqaro standartlar, xususan International Association of Insurance Supervisors tomonidan ishlab chiqilgan tamoyillar sug'urta kompaniyalarida kapital va risklar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish uchun kapital yetarligini mustahkamlash, risk-menejment tizimini takomillashtirish, qayta sug'urtalash mexanizmlaridan samarali foydalanish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim hisoblanadi. Mazkur chora-tadbirlar sug'urta kompaniyalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash va ularning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 avgustdagi PQ-4412-son "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
9. Холбаев А.Ю. Страхование информационных рисков (киберстрахование) // «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy-elektron jurnali. – Toshkent, 2021. 2-son.
10. Xolbaev A.Yu. Informatsion risklarni sug'urtalash amaliyoti va muammolari (kiber sug'urta) // «Logistika va iqtisodiyot» ilmiy-elektron jurnali. – Toshkent. 2021. 3-son. S.433-439.
11. Xolbaev A. Y. Insurance as a promising mechanism of information protection //Archive of Conferences.(Dec. 2021). – 2021. – С. 39-40.
12. <http://www.napp.uz> – O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligining rasmiy sayti ma'lumotlari.
13. Iqtisodiyot va moliya sohasiga oid adabiyotlardan olingan ma'lumotlarga asosan muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi.